

**NA'MATAK(ROSA) TURKUMINING TURLARI VA ULARNI
YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI.**

Mavlonova Madinabonu Alisher qizi

*Guliston Davlat universiteti “Dorivor o‘simliklar
yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi” 3-kurs talabasi.*

e-mail: madinamavlonova075@gmail.com

Annotatsiya.

Hozirda shiddat bilan rivojlanayotga davlatlar qatorida O‘zbekiston ham hamma sohalarda olg‘a intilmoqda. Yangidan yangi inovatsiyon yangiliklar yangidan yangi o‘zgarishlar bo‘lmoqda shular qatori ilm fan sohasida ham yangi g‘oyalar va yangiliklar yaratilmoqda. Bundan tashqari interaduksiya ham shular qatori rivojlanib yangidan yangi o‘simlik navlari va turlari bizning mintaqamizga moslashtirilmoqda. Bizning mintaqamizda 4500 dan ortiq o‘simlik turlari tarqalgan bo‘lib 1150 turi xalq tabobatida foydalaniladi. Shiddat bilan rivojlangan AQSH, Yevropa mamlakatlari, Xitoy, va Rossiya kabi davlatlarda oziq-ovqat, farmavsetika va parfmeriya sanoati uchun xom ashyo yetkazib bera olmayapti. Tabiiy holda tarqalgan o‘simliklar qoplaminig juda ko‘p qismi qisqarib ketdi. Shu sababli bizning mintaqamizda tarqalgan dorivor o‘simliklarni (qizilmiya, kovar, kovrak, na‘matak, sitanxe va boshqalar) bizda tabiiy holda tarqalgan dorivor o‘simliklarni katta mablag‘ evaziga sotib ola boshladi. Shundayki bizning mintaqamizda keng tarqalgan dorivor o‘simliklar plantatsiyasini yaratish maqsadida bir qancha qarorlar tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi PQ-4901-son qaroriga muvofiq Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida

Respublika hududlarida dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashga doir ilmiy tadqiqotlarning yagona bazasini yaratish, xorijiy davlatlarning ilg‘or ilmiy ishlanmalarini o‘rganib borish, yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlik o‘rnatish hamda zamonaviy texnologiyalar, ilmiy ishlanmalarni respublikaga joriy etish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni kuchaytirish maqsadida:

dorivor o‘simliklarni muayyan tuproq-iqlim sharoitini hisobga olgan holda madaniy holda yetishtirishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha aniq ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

dorivor o‘simliklar yetishtiruvchi va qayta ishlovchi fermer xo‘jaliklari, tashkilotlar va boshqa subyektlar rahbarlari va mutaxassislarining malakasini oshirib borishga yo‘naltirilgan dasturlarni tayyorlash va o‘qitish tizimini tashkil etish.

Turkum 120 ga yaqin turni birlashtiradi. Shulardan O'zbekistonda 13 turi tabiiy holda o'sadi va bir nechta turlari manzarali o'simlik sifatida ekiladi. Na'mataklar ichida itburun na'matak nomli turi O'zbekistonda keng tarqalgan. Uning mevasi (gipantiya)dan dorivor xomashyo sifatida, urug'idan o'stirilgan ko'chatlaridan atirgullarni payvand qilish uchun payvandtag sifatida foydalaniladi. Na'mataklar atirgullarning kelib chiqishidagi asosiy manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: na'matak, zamonaviy texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar, haqiqiy meva, yong'oqchalar, stratifikatsiya.

Kirish.

Na'matak (*Rosa*) turkumi. Bu turkum 1—3 m balandlikdagi tikanli butalardan tashkil topgan. Poyasi egiluvchan, tikanli, yaltiroq, qo'ng'ir-qizil yosh novdalari bir oz yashil yoki qo'ng'ir-yashil ranglidir. Barglari toq patli murakkab, poyada bandi bilan ketma-ket o'rnashgan. Murakkab barglari (5- 7 ta) tuxumsimon va arrasimon qirrali. Qo'shimcha barglari bandi bilan birlashib ketgan ham bo'lishi mumkin. O'simlik gullari yirik yakka yoki 2-3 tadan shoxchalarga o'rnashgan. Gullari aktinomorf, 2 jinsli, yirik, oq pushti, sariq rangli, gulqo'rg'oni murakkab, xushbuy hidli. Gul oldi barglari lansetsimon. Kosacha bargi va toj bargi 5 tadan, otalik va onaliklar ko'p sonli Mevasi - gul o'rnidan hosil bo'ladigan shirali soxta meva. Mevasi sharsimon, diametri 1-1,5 santimetr ga teng. Ichida onaliklaridan hosil bo'lgan bir nechta haqiqiy meva - yong'oqchalar bor. Yong'oqcha o'tkir uchli, sertuk bo'lib, burchaksimon shaklga ega. May oyidan boshlab, iyulgacha gullaydi, mevasi avgust sentyabrda pishadi. Na'matak mevalari turlariga qarab og'irligi, rangi va kattakichikligi novda po'stlog'ining ko'rinishi, tikondorligi bilan farqlanadi. O'simlik issiqsevar, nanga, organik va mineral o'g'itlarga o'ta talabchan. Xar xil tuproq sharoitiga moslasha oladi. Na'matakni bitta yakka tartibda alohida o'stirib bo'lmaydi, chunki u yakka o'zi changlanmaydi shuning uchun xar doim birbiriga yaqin joylashgan bir nechta na'mataklarni ekish karak. O'simlikni qalamchadan tashqari urug'idan xam ekish mumkin. Urug'idan ekish qalamchaga nisbatan kech yetiladi, tezda rivojlanib xam ketmaydi, uning uchun ikki uch yil vaqt o'tishi mumkin.

Na'matak-turlari xar xil vitaminlarga boyligi bilan mashxur. O'zbekistonda o'sadigan turlaridan quyidagilar ko'p yillardan buyon tabobatda ishlatib kelinadi.

1. Begger na'matagi – *Rosa beggeriana*
2. Burushqoq na'matak – *Rosa rugosa*
3. Dauriya na'matagi – *Rosa davurica*
4. Zangezur na'matagi — *R. Zangezura*
5. May na'matagi – (dorlchinsimon) – *R. Majalis*
6. Maydagul na'matagi — *R. micrantha*
7. Paxmoq na'matagi — *R. Tomentosa*

8. Tikanli na'matagi — *R. Acicularis*
9. Fedchenko na'matagi — *R.fedtschenkoana*
10. Qalqonburun na'matagi — *R. Corymbifera*
11. Qumsevar na'matagi — *R. Psammophila*
12. Qo'qon na'matagi – *R. Kokanica*
13. Itburun na'matagi – *R. Canina*
14. Samarqand na'matagi- *R. marakandica*

O'simlikning tarqalishi. Namatak turlari Moldova, Ukraina, Belarus, Boltiq bo'yi, Rossiyaning Yevropa qismining o'rmon, G'arbiy va Sharqiy Sibirda, Qog'ozistonda uchraydi. Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Farg'ona, Namangan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi bog'larda, dalalarda, tog'larning o'rta yuqori qismidagi suv bo'ylarida, archazor va yong'oqzorlarda o'sadi.

Na'matakni o'stirish agrotexnikasi. Na'matak turlari ko'p urug' va meva berishi bilan birgalikda urug'lari qiyin unuvchi urug'lar qatoriga kiradi. Haqiqatan ham tabiatda bu o'simlikni yosh nihollari kamdan-kam hollarda uchrashi kuzatilgan. O'zbekiston sharoitlarida na'matak urug'larini tayyorlash uchun avgust oyining oxiri-sentabr boshlarida o'simlik mevasi sarg'ish- qizg'ish rangga o'ta boshlaganda yig'iladi. O'simlik mevalari urug'idan ajratilib, 1 qism urug' 3 qism yuvilgan daryo qumi bilan aralashtiriladi, ya'ni stratifikatsiya qilinadi. Aralashma 60-70 sm chuqurlikdagi o'raga solinib usti yopilgan holda, har 10-15 kunda namlab aralashtirilib turiladi. Urug'lar shu usulda stratifikatsiya qilinganda ularni unuvchanligi ortadi. Tayyorlangan urug'lar kuzda 30-35 sm chuqurlikda haydalgan, organik o'g'it va fosforli o'g'itlar bilan o'g'itlangan, boronalab tekislangan yerlarga (erta bahorda), qator oralig'i 60-70 sm li egatlarga 2 sm chuqurlikda ekib chiqiladi. Ekilgan urug'larni ustiga 1 sm qalinlikda mayda ko'p yillik go'ng yoki yog'och qipig'i bilan mulchalanadi bu tadbir tuproq namini saqlashga yordam beradi. Shu bilan birga nihollarni sovuq urishidan asraydi. Bahorning kelishiga qarab, dastlabki nihollar mart oyining birinchi ikkinchi dekadasida o'sib chiqadi. Aprel oyida nihollar begona o'tlardan tozalanib, qator oralariga ishlov beriladi. Bu davrda nihollar har oyda 3-4 martadan sug'orilib, qator oralari kultivatsiya qilinadi. May-iyun va iyul oylarida gektar hisobiga 50-60 kg azotli o'g'itlar bilan oziqlantirish nihollarni yaxshi o'sishiga yordam beradi. Na'matak o'simligida un shudring kasalligi tez tarqalishi mumkinligini hisobga olgan holda aprel oyidan boshlab har oyda ikki martadan oltingugurt kukuni purkab turiladi. Ko'chatlarni iyun va iyul oylarida begona o'tlardan tozalab har 10-12 kunda sug'orib turiladi. Kech kuz oylariga borib ko'chatlar tayyor bo'ladi. Ko'chatlarni kuz oylarida yoki erta bahorda qator oraligi 4 m, ko'chat oraligi 2 m qilib ekiladi.

Na'matak turlarini vegetativ ko'paytirish urugidan ko'paytirishga nisbatan ancha qulayligi mavjud, shu bilan birga ularni tezroq hosilga kirishi ham kuzatilgan. Bu usul bilan ko'paytirishda 20-30 sm uzunlikda o'simlik novdalaridan olinib

qalamchalar tayyorlanadi. Ularni uchki tomonlarini yuqoriga qilib bog‘-bog‘ qilinib yerga ko‘mib qo‘yiladi. Mart oyining boshlarida ushbu qalamchalarni qator oraligi 60-70 sm, ko‘chat oraligi 30-35 sm qilib ekib chiqiladi. Qalamchalarni 10-12 sm qismi tuproqdan chiqib turishi kerak. O‘simlikni bir yil mobaynida yaxshi parvarishlab o‘stiriladi. Ikkinchi yilga borganda tayyor bo‘lgan ko‘chatlar mart oyining birinchi o‘n kunligida plantatsiyalarga oldindan tayyorlangan yerlarga qator oraligi 4 m, ko‘chat oraligi 3 m sxemada ekib chiqiladi. O‘simlikni ekishda ko‘chat va qator oraligiga ishlov berish va uning hosilini terib olish hisobga olinishi lozim. Na‘matak ekilgan qatorlar ariqchalardan sug‘oriladi. Egatlardagi tuproq to‘la namlanadigan darajada jildiratib sug‘oriladi, keyin chopiq qilinadi, chuqurlardan o‘sib chiqqan yirik begona o‘tlar qo‘lda yulib tashlanadi. Bunda shuni ham nazarda tutish kerakki, qo‘l kuchi bilan chuqur chopilganida ildiz tarmog‘i zararlanishi mumkin. Ildiz zararlangan yerda o‘simlik bachkilar ko‘payib ketadi, u ona o‘simlikni rivojlanishiga xalaqit beradi, tup hosili kamayadi. Hosil bolgan ildiz bachkilar asta olib tashlanishi kerak. Agar uning ildiz tarmog‘i yaxshi rivojlangan bolsa, ularni ko‘chat sifatida nobud bolgan ko‘chatlar o‘rniga ekiladi. Agar ildizlari yaxshi rivojlanmagan, kesilgan boisa, yaxshi rivojlanguniga qadar alohida yerga o‘tqazib qo‘yiladi. Tavsiya etilgan agrotexnikaga qat‘iy amal qilinganda namataklar ekilganidan keyingi ikkinchi yili mevaga kiradi. Ko‘chatlar 2-3 yili va undan keyingi yillarda qiyg‘os mevaga kiradi. Mevasi qo‘lda teriladi va u tom ostida yoki qo‘ritishga moslashtirilgan maxsus quritish pechlarida quriyiladi. Undan tashqari tekis ochiq maydon tagi (biton yoki asfalt) bo‘lgan maydonga 2 sm qilib yoyiladi va ustiga mayin mato yopiladi (meva ustidagi pigmentlar quyosh nuri tasirida parchalanib ketmasligi uchun). 1 haftada bir marta ustidagi mato olinib quriyotgan meva ag‘dariladi. 20-30 kun davomida meva quriydi va meva shamol yordamida shopirilib qoplarga solinadi. Quruq meva nam yoki quyosh tasiridan holi joyda saqlanadi.

Na‘matak ekilgan yerlarga gektar hisobiga 110 kg azot, 80 kg fosfor va 60 kg kaliy o‘g‘iti beriladi. O‘g‘itlar sug‘orishdan oldin berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Na‘matak poyalari 5 yilgacha o‘sib turadi, keyin ular yangi o‘sib chiqqan novdalar bilan almashinadi. Eski novdalari vaqti-vaqti bilan qirqib olib tashlanadi. Har 6-7 yilda na‘matakning barcha yer ustki novdalari olib tashlanib, yoshartirilgan na‘matakzor bir yildan keyin gullaydi va mevaga kiradi. Na‘matakning asosiy kasalligi yaproq va yosh poyalari, shoxchalarga kuyasimon zamburug‘ tushishidir. Unga qarshi kurashish uchun o‘simlik oltingugurt kukuni bilan seven qarishmasi vositasida ishlov beriladi. Har gektar yerga 20-30 kg oltingugurt va 1-2,4 kg seven solinadi. Na‘matakzorda agrotexnik tadbirlarni o‘tkazishda qalin qolqop kiyish zarur bo‘ladi.

Xulosa. Yildan yilga dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Hozirgi kunda tabiiy holda tarqalgan dorivor o‘simliklardan to‘g‘ri foydalanish ularning tabiiy holda tarqalganlarini himoya qilish va ularning kamayib ketishini oldini

olish maqsadida bir qancha qarorlar qabul qilindi. Dorivor o'simliklar tarqalgan hududlar qo'riqxonalariga aylantirildi. Hukumatimiz tomonidan kamyob va ehtiyoj sezilgan dorivor o'simliklarni plantatsiyalari yaratish to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Yildan yilga tabiiy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj ortib borganligi sababli hom ashyo bazalarini yaratish va va tabiiy mahsulotlar ishlab chiqarish jadal rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. А.Эргашев, Ў.Аҳмедов, А.Абзалов, М.Юлчиева, А.Маматкаримов. Доривор ўсимликларни етиштириш технологияси фанидан амалий машғулотлар. Тошкент-2009. 73-74 б.
2. Б.Ё. Тўхтаев, Т.Х. Махкамов, А.А. Тўлаганов, А.И. Маматкаримов, А.В. Махмудов М.Ў. Аллаяров Доривор ва озуқабоп ўсимликлар плантацияларини ташкил этиш ва хом-ашёсини тайёрлаш бўйича Йўриқнома Тошкент-2015. 27-30 б.
3. О'рмон доривор о'симliklari Е.Т.Берdiyev, М.Х.Наkimova, G.B.Махmudova «Sano-standart» nashriyoti Toshkent – 2016 65-67 б.